

*"Hidoyat" kutubxonasi*

# SEVGI NIMA?

*Muallifi Aloudlin Bashar*

*Turkchadan Davron Qobil tarjimasi*

*So'zboshi muallifi va muharrir*  
**Nurulloh Muhammad Raufxon**

«Movarounnahr»  
Toshkent - 2005

## ***Katta hayot ostonasida***

Alouddin Basharning "Sevgi nima?" kitobchasi aslida "Haqiqat nima?" kitobining davomidir. Katta hayot boshida o'zi uchun haqiqatni topib olishga urinib turgan Xulyo ismli qizga yozilgan maktublar...

Savollar va javoblar ketma-ket ekaniga qaramay, mavzuda baribir farq seziladi. Haqiqatni axgarayotgan yosh yurakka, yosh xususiyatini e'tiborga olgan holda, sevgi haqida to'xtalinmasa, albatta, maqsad to'la hosil bo'lmas edi. Ikkinchidan, bu mavzuga alohida diqqat lozim. Balki shuning uchundir, maktublarining davomini alohida kitobcha holida chop etgiran. Biz ham muallifning ko'zlagan niyatini hurmat qilib, ikkala kitobni ayri-ayri taqdim etyapmiz. Ammo bir hikmat bilan qo'lingizga "Sevga nima?" oldin tushib qolsa, "Haqiqat nima?"ni ham topib, qo'shib o'qishga harakat qilint.

Ukalarim, singillarim! Mana, o'smirlik yoshidan o'gib, bugun yigit-qizlar bo'lib yetishdingiz. Endi mustaqil hayot ostonasida turibsiz. Hayotda adashmayin, insonlikka loyiq umr o'tkazayin desangiz, haqiqat va sevgi masalalarida to'g'ri dunyoqarash shakllantirib oling. Siz izlanuvchi, fikrlovchi Inson bo'lib tug'ilganingizni va bu dunyoda o'zingizga ajratilgan fursatni Sharafli Insonday yashashga haqli ekaningizni unutmang. Alloh sizga yor bo'lsin!

***Nurulloh MUHAMMAD RAUFXON***